
Sharqiy Osiyodagi yirik Tayland davlati bilan qishloq xo'jaligi maxsuloti eksporti bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Toshloq tumanida yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini yanada ko'paytirish va eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2023 yilda tumanimiz eksportyorlari Yevropa va Sharqiy Osiyo davlatlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini amalga oshirdilar.

Bu borada, "GOOD & GOOD FRUIT CO. LTD kompaniyasi vakillari tumanimizga tashrif buyurdilar hamda tumandagi "Toshloq Ise Fruits Servis" MCHJga tashrif buyurdilar. Mehmonlarga korxonada mavjud shart-sharoitlar va mevalarni saralash uskunalari va jarayoni namoyish etildi.

Korxonada vakillari bilan muzokaralar olib borilib, tumanda yetishtirilgan gilos, uzum, qovun va o'rik mevalarini yetkazib berish bo'yicha dastlabki 5 mln.dollarlik shartnoma imzolashga kelishib olindi.

2024-02-16 10:01:49